

**SHARQ UYG‘ONISH DAVRIDA TA‘LIM VA TARBIYANING O‘RNI**

**Tilavoldiyeva Sarvinoz Salohiddin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti  
‘Boshlang‘ich ta‘lim‘ yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Sharq uyg‘onish davri pedagogikasi, insoniyat tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, axloqiy fazilatlar va ta‘lim-tarbiya masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Ushbu tezisda Sharq uyg‘onish davri ta‘lim va tarbiyaning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

**Абстрактный:** Педагогика Восточного Возрождения имеет особое значение в истории человечества, большое внимание уделяется нравственным качествам и вопросам воспитания. В этой диссертации обсуждается роль образования и обучения в период Восточного Возрождения.

**Kalit so‘zlar:** shaxs kamoloti, ta‘limiy, tarbiyaviy, axloqiy, qadriyatlar.

Bu davrda shaxs kamoloti masalasi juda muhim bo‘lib, ta‘limiy, tarbiyaviy va axloqiy mazmunda bir necha asarlar yaratilgan. Bu asarlar ta‘lim-tarbiya, milliy axloq-odob borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an‘analarini joy-joyiga qo‘yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Quyidagi asarlar bu davrda yaratilgan:

"Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv haqida", "Axloq haqida risola", "Ishq risolasi", "Qutadg‘u bilig", "Axloqi Nasriy", "Axloqi Jamoliy", "Axloqi Muhsiniy", "Hibatul-haqoyiq", "Qobusnoma", "Guliston", "Bo‘ston", "Mahbub ul-qulub".

Bu asarlar ta‘lim-tarbiya, axloqiy fazilatlar va milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalalarini ko‘rsatishga bag‘ishlangan.

Tarixiy manbalar ma‘lumotlariga ko‘ra, XI asrda Xorazmda ilm-fan, taraqqiy etgan. Bu davrda ilm-fan rivojlanishi quyidagi uchta yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

Matematika-tibbiyot yo‘nalishi (matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmologiya va boshqalar).

Ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishi (falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va shunga yaqin bo‘lgan yo‘nalishlar).

Ta‘limiy-axloqiy mazmundagi yo‘nalish, unga qomusiy olimlarning asarlaridagi didaktik va axloqiy fikrlari kiritilgan.

Sharq uyg‘onish davri, inson tarbiyasining ma‘naviy sohadagi eng asosiy masalasi bo‘lib, ta‘lim-tarbiya masalasiga katta e‘tibor berilgan davr hisoblanadi. Bu davrda insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ta‘lim va tarbiya yo‘nalishiga katta e‘tibor qaratilgan. Bu, buyuk mutafakkirlarning, pedagoglarning diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri bo‘lgan. Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa‘diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta‘lim-tarbiyaviy asarlari insonning ma‘naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu asarlar insonning ma‘naviy kamolga yetishida yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash g‘oyasini ilgari surishda muhim rol o‘ynagan.

Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari ta‘lim va tarbiyaga oid qarashlarini "Qur‘oni Karim" va "Hadis" ta‘limoti asosida shakllantirdilar. Ularning qarashlarida yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga oid zarur odob-axloq me‘yorlari, turmush tajribasi, islom axloqi, Qur‘on talablari va Hadislar asosida amal qilish lozim bo‘lgan harakatlarning ketma-ketligi bayon qilingan. Bu buyuk zotlarning ijodlaridir va bugungi kunda ta‘lim-tarbiya jarayonida yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llanilmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirishda beqiyos hissa qo'shgan Abu Nasr Forobiy quyidagi muhim ta'kidlar bilan ta'lim va tarbiyaning asosiy qarashlarini ta'riflashgan:

"Ta'lim" so'zi xalqlar va shaharliklar orasida nazariy fazilatni birlashtirish, "tarbiya" esa tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish ma'noni anglatadi.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o'zi tarbiyali bo'lishi shartdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilan emas, balki amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi.

Tarbiya har bir xalq va millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ishdir - harakat, kasb-hunarga o'rgatishdir.

Inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir.

Abu Rayhan al-Biruni, orta asrlarda Sharqning qomusiy olimlari, astronomiyachi, geograf, ma'dan-shunos, etnograf, tarixchi, shoir, falsafachisi va pedagogi sifatida mashhur bo'lgan.

Uning asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari, turli ilm-fan sohalari, falsafa, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix va tarbiya fanlariga oid ko'p yirik ma'lumotlar va tadqiqotlar joylashgan. Beruniyning ilmiy yutuqlari va ijodidan qoniqmasdir. U yoshligida riyoziyot va falakiyotni o'rganib, Quyoshning balandligini o'lchagan va quyosh tutilishini kuzatish bilan shug'ullanib, 22 yoshida Markaziy Osiyoda birinchi bor yer globusini va turli xalqlarning yil hisoblari haqidagi ilk yirik asari - "Osorul boqiya"ni yaratgan. Beruniyning fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi juda ulkan bo'lib, u 152-ta risola yaratgan. Rus olimi V.V. Bartold Beruniy haqida "Beruniy shunday serqirra olimki, o'z davrida mavjud bo'lgan ilm sohalaridan shug'ullanmagani uning shug'ullanganidan kamdir. Uning yozgan asarlari shunchalik ko'p va serqirra bunga bir odamning umri kifoya qilganiga kishi hayron qoladi" deb ta'riflaydi. Akademik S.P. Tolstov ham Beruniyning ahamiyatini qandaydir beradigan o'ziga xos ta'riflar bilan qadrini oshirdi. Bugungi kunda Beruniyning boy ilmiy va adabiy merosi avlodlar qo'lida qadr topmoqda. Uning asarlari bilan falsafa, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix va tarbiya fanlari rivojiga katta hissa qo'shgan. Beruniyning boy ilmiy merosi nomi abadiylashtirish maqsadida, yurtimizdagi bir qancha ilmiy markazlarga, ko'chalar, shahar va qishloqlarga uning nomi berilgan. Abu Rayhan al-Biruni 1048 yilda G'azna shahrida vafot etgan, lekin uning ilmiy merosi va yutuqlari davom etmoqda va uning nomi abadiylashtirilgan.

Buyuk Sharq mutafakkirlari, boy madaniy va ma'rifiy meroslarida yosh avlodni doimo halol mehnat qilishga, mardlik va saxovat, kamtarlik va adolat, va mehr va oqibatga chaqirishga chaqirishga urg'u berishgan. Ularning asarlari, jumladan, Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" kabi asarlari, ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratishganligi o'z aksini topgan. Bu asarlarda farzand ota-onaning baxti bo'lsa, tarbiya farzandning buguni, ertasi va kelajagidir degan ma'no anglanadi. Ibn Sino tarbiya beruvchilarga qarata, "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga, avvalo, o'zing amal qil" deb ta'lim va tarbiyada o'zingizning o'rni va rolini o'rganishni maslahat beradi. Farzand tarbiyasida, mutafakkirlarning fikrmulohazalari, pand-nasihatlarini, hikmatlari foydalanish, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va boyitishda juda muhimdir. Bundan ham ko'ra, bu maqbul meroslar asosida insonlar hayoti o'zgaradi va rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., «O'zbekiston», 2017 y.
2. O.Xasanboeva, J.Xasanboev, H.Homidov "Pedagogika tarixi" – "G'afur G'ulom" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. -T.: 2004 y.
3. D.Bobojonov, M.Abdurasulov "Abadiyat farzandlari" Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti 2009 y.
4. M.Farmonova. "Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi" (Ilmiy-uslubiy qo'llanma)